

## “TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi

F. Rashidova

2025-yil 16-sentyabr

### O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining

3-son bayoni

Toshkent shahri

2025-yil 16-sentyabr

**Raislik qiluvchi:** – **F. Rashidova**, Jamoatchilik kengashi raisi

**Qatnashdilar:** – Jamoatchilik kengashi a’zolari, Nodavlat notijorat  
tashkilotlari vakillari, Oliy ta’lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligining tegishli bo’lim  
boshliqlari, Jamoatchilik kengashi kotibi

### KUN TARTIBI:

- I. Jamoatchilik kengashining 2025-yil 9 oylik faoliyati sarhisobi;
- II. Jamoatchilik kengashining kelgusi faoliyati bo’yicha “Yo’l xaritasi”ni tasdiqlash;
- III. Jamoatchilik kengashi tarkibi va uning nizomiga kiritiladigan o’zgartirish va qo’shimchalarni muhokama qilish;
- IV. Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo’yicha ijtimoiy loyiha tanlovini o’tkazish masalasi muhokamasi.

---

*(Rashidova, Jamoatchilik kengashi a’zolari, Rashidova)*

### **I. Jamoatchilik kengashining 2025-yil 9 oylik faoliyati sarhisobi.**

Kun tartibiga ko’ra, Jamoatchilik kengashi raisi **Feruza Musaeвна Rashidova** kengashning o’tgan 2025-yil 9 oyi davomidagi faoliyati haqida batafsil ma’lumot berdi.

Jamoatchilik kengashi tomonidan ilmiy ishlarning sifati, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini kenga ommaga ko’rsatish uchun joriy

yilning yanvar oyidan boshlab, har oyning oxirida “Ilmiy maqolalarning sifati” borasida turli mavzulardagi xalqaro webinarlar, jami 7 ta webinar tashkil etilgan.

Hisobot davrida bir qator oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaning mohiyatini o’rganish, uni bartaraf etish yo’llarini izlash hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan seminar va uchrashuvlar o’tkazildi. Jumladan:

Urganch, Guliston va Jizzax davlat universitetlarida “Korrupsiyaning mohiyati va unga qarshi kurashish emas, balki uni o’rganish va bartaraf etish yo’llari” mavzusida seminarlar tashkil etildi;

2025-yil 4-mart kuni Guliston davlat universitetida Sirdaryo viloyatidagi oliy va kasbiy ta’lim muassasalari rahbarlari bilan uchrashuv bo’lib o’tdi. Unda kengash a’zolari, vazirlik vakillari, ilmiy jamoa a’zolari va texnikum rahbarlari ishtirok etib, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqaro reytinglarda universitetlarning o’rnini oshirish, xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik va ta’lim sifatini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Aprel oyida vazirlikda o’tkazilgan yig’ilishda vazirning hisobotlari tinglanib, ta’lim sifatini ta’minlash (QA), TOP-500 talik oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish masalalari ko’rib chiqildi. Shuningdek, “Strategiya-2030” doirasida ishchi seminar tashkil etilib, unda tadqiqot va rivojlanish (R&D) mexanizmlarini joriy etish, har bir tashabbusni ilmiy tadqiqot va statistik tahlillarga asoslash zarurligi belgilab olindi.

2025-yil 28-may kuni Jizzax davlat pedagogika universitetida kengash tashabbusi bilan viloyat miqyosida 150 nafardan ortiq faollar ishtirokida seminar o’tkazildi. Unda nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, fuqarolik jamiyati faollari va oliy ta’lim muassasalari rahbarlari qatnashib, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, oshkoralikni ta’minlash va ta’lim sifatini oshirish masalalari keng muhokama qilindi.

4-iyun kuni kengash tashabbusi bilan “Global raqobatbardoshlik uchun oliy ta’lim siyosati va institutsional islohotlar” mavzusida onlayn konferensiya tashkil etildi. Unda oliy ta’lim siyosatining zamonaviy tendensiyalari va raqobatbardoshlikni oshirish yo’nalishlari muhokama qilindi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda kengash a’zolari hamda OAV vakillari uchun Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti va Qoraqalpog’ davlat universitetiga press-turlar tashkil etildi.

Press-turlar davomida yangi qurilayotgan va foydalanishga topshirilayotgan talabalar turar joylari, qurilish-arxitektura yo’nalishidagi muhandislik loyihalari, shuningdek, dual ta’lim tizimining joriy etilishi o’rganildi. Aniqlangan muammolar yuzasidan mas’ullarga tegishli tavsiyalar berildi.

## **II. Jamoatchilik kengashining kelgusi faoliyati bo’yicha “Yo’l xaritasi”ni tasdiqlash.**

Kengashning 2025–2028-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan “Yo‘l xaritasi” loyihasi batafsil muhokama qilindi. Muhokamalar jarayonida a‘zolar tomonidan oliy ta‘lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarurligi ta‘kidlandi.

Xususan, qisqa muddat ichida mazkur kengashlarning namunaviy nizomini ishlab chiqib, uni barcha oliygohlarga yuborish taklif etildi. Shuningdek, jamoatchilik kengashlari faoliyatini o‘rganish va amaliy tajribani umumlashtirish maqsadga muvofiq ekani qayd etildi. Bildirilgan takliflarga ko‘ra, “Yo‘l xaritasi”ga tegishli qo‘shimcha kiritish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

### **III. Jamoatchilik kengashi tarkibi va uning nizomiga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni muhokama qilish.**

Jamoatchilik kengashining so‘nggi yig‘ilishlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, kengash a‘zolarining bir qismi uning majlislarida muntazam qatnashmayapti, ko‘pchilik esa hech bir asosli sababsiz yig‘ilishlarni o‘tkazib yubormoqda. Mazkur holat kengash faoliyatining samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani inobatga olinib, “Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom” talablari asosida bunday a‘zolari tarkibdan chiqarish yuzasidan taklif kiritish masalasi ko‘rib chiqildi.

Shu bilan birga, kengash tarkibini ta‘lim sohasiga befarq bo‘lmagan, faol, kengash ishida muntazam va amaliy ko‘mak bera oladigan jonkuyar fuqarolar hamda ijtimoiy faollar bilan to‘ldirish taklifi ilgari surildi. Bu tashabbus kengashning haqiqiy jamoatchilik minbariga aylanishi, ta‘lim jarayoniga doir dolzarb masalalarni hal etishda keng qatlam vakillarining faol ishtirokini ta‘minlashga xizmat qilishi bildirildi.

Shuningdek, “Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom”ni qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizom”da belgilangan asosiy talablar amaldagi nizomda to‘liq aks ettirilmagan.

Xususan, vazirlik tomonidan tasdiqlangan nizomda kengashning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, shu bilan birga, tarkibni shakllantirish va faoliyatini tashkil etish tartibiga oid muhim bandlar qoldirib ketilgan. Natijada, kengashning to‘laqonli va samarali faoliyat yuritishiga qonuniy asoslar yetarli emasligi qayd etildi.

Shu bois, Nizomni yuqorida qayd etilgan qaror bilan tasdiqlangan namunaviy hujjat talablari asosida qayta ko‘rib chiqish va unga zaruriy o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqligi bildirildi.

Bundan tashqari, kengash a‘zolarining umumiy faolligi ijobiy baholansada, ayrim sustkashliklar ham kuzatilgani qayd etildi. Jumladan:

ilgari surilgan tashabbuslarning amaliy natija bermasligi, ishchi safar va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘lar ajratilmaganligi,

vazirlik yig'ilishlarida tashkiliy xarajatlarning hisobga olinmasligi.

Ushbu omillar kengash tashabbuskorligini cheklab, samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surildi:

oliy ta'lim muassasalari va vazirlik tarkibidagi kengashlar faoliyatiga oid xarajatlarni vazirlik kasaba uyushmasi zimmasiga yuklash;

kengash a'zolari faoliyatini rag'batlantirish uchun ularning ish joyidan olinadigan oylik maoshiga qo'shimcha tarzda yo'l va boshqa mayda xarajatlarni qoplash maqsadida 1-1,5 mln so'm miqdorida mablag' ajratilishini ta'minlash.

Kengash faoliyatining samaradorligini yanada oshirish, uning faoliyatiga qo'shimcha kuch va yangicha qarashlarni jalb etish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalardan iborat Kengash huzurida Tashabbuskor yoshlar guruhini tashkil etish taklif etildi.

Mazkur yoshlarning tashabbuskorlik va ijodkorlik salohiyatidan samarali foydalanish, ularni muammolar yechimiga faol jalb qilish imkonini beradi. Tashabbuskor yoshlar guruhi oliygohlarda kuzatiladigan dolzarb va tanqidiy masalalarni o'rganib, ular bo'yicha takliflar ishlab chiqishda Kengashga yaqindan ko'maklashishi, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga hissa qo'shishi ta'kidlandi.

#### **IV. Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha ijtimoiy loyiha tanlovini o'tkazish masalasi muhokamasi.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 10-sentyabrda 347-sonli buyrug'i bilan "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom" tasdiqlandi.

Mazkur nizomga muvofiq davlat ijtimoiy buyurtmalari ikki usulda – tanlov asosida hamda to'g'ridan to'g'ri buyurtma berish orqali amalga oshiriladi. Loyiha va tashabbuslar ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish va keng yoyish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, yosh olimlar va talabalarning ilmiy loyihalarini rag'batlantirish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, shuningdek ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish yo'nalishlarini qamrab oladi.

Shuningdek, joriy yilning sentyabr oyida Vazirlik tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish uchun tanlov e'lon qilinadi. Tanlov yakunlari bo'yicha g'olib deb topilgan loyihalar belgilangan tartibda hujjatlashtirilib, amaliyotga joriy etiladi.

Jamoatchilik kengashi raisi Feruza Rashidova ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilmiy salohiyatni oshirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, yoshlarni tadqiqotchilik faoliyatga jalb etishda nodavlat tashkilotlarning ushbu jarayonlardagi ishtiroki va roli kabi bir qator muhim masalalarga to'xtaldi.

Bugungi kunda oliy va kasbiy ta'lim, ilm-fan hamda innovatsiyalar sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish, ularga tizimli va xalqchil yondashuv asosida yechim topish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, bu jarayonda jamoatchilikning, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi bugun jamiyatimiz uchun o'ta dolzarb hisoblanadi. Barcha yoshlar, jismoniy imkoniyati cheklanganlar yoki maxsus ehtiyojlarga ega shaxslar uchun ta'lim olishda teng sharoitlar yaratish, ularning jamiyatda to'liq va faol ishtirokini ta'minlash – bu faqat ijtimoiy adolat masalasi emas, balki barqaror taraqqiyotning kafolatidir. Inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish, pedagoglarni maxsus tayyorlash, infratuzilmani moslashtirish va keng jamoatchilikning bu boradagi xabardorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, davlat va jamoatchilik o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, inklyuziv yondashuvni amaliyotga tatbiq etish kabi masalalar bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olishga kelishildi.

Jamoatchilik kengashi ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan har qanday tashabbusni qo'llab-quvvatlashga, fuqarolik jamiyati institutlari va vazirlik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga tayyor ekani bildirildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Jamoatchilik kengashining 2025-yil 9 oylik faoliyati haqidagi **hisobot** ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Jamoatchilik kengashining 2025–2028-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan **“Yo'l xaritasi”** bildirilgan takliflar inobatga olingan holda tasdiqlansin.

### 3. Yig'ilishda bildirilgan takliflardan kelib chiqib:

“Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizom”ga;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan vazirlik rahbariyatiga belgilangan tartibda takliflar kiritilsin.

4. Vazirlik tomonidan Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha ijtimoiy loyiha tanlovini o'tkazish masalasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha ijtimoiy loyiha tanloviga kelib tushgan arizalarni baholash mezonlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**Kengash kotibi**



**N. Abduqunduzova**

Nodavlat notiforati tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha loyihalar tanloviga kelib tushgan hujjatlarni

[illegible]

BAHOLOVCHI:

OZUMI

Sana:

\* Tanlov e'lon qilimgan 7 ta yo'nalishning 5 tasi bo'yicha loyihani takliflari kelib tushgan

[illegible]